O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

TASDIQLAYMAN
Guliston davlat pedagogika instituti
Rektori _____ J.X.Karshibayev
29-avgust 2025-yil

TALABALAR BILIMINI BAHOLASH SIYOSATI

Guliston - 2025

B.D.Ergashov Guliston davlat pedagogika instituti Ta’lim sifatini ta’minlash bo‘limi boshlig‘i, p.f.f.d (PhD) dotsent

T.Sh.Muhammadiyev Guliston davlat pedagogika instituti Ta’lim sifatini ta’minlash bo‘limi bosh mutaxassisi

Mazkur “Talabalar bilimini baholash siyosati” Guliston davlat pedagogika instituti 2025 yil “№ 1-son” Kengash yig‘ilishida muhokama qilingan va ma’qullangan.

Asos: O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining buyrug‘i, 26.09.2018 yilda ro‘yxatdan o‘tgan, ro‘yxat raqami 3069

Talabalar bilimini baholash siyosati

I. Maqsad va qo‘llanish sohasi

1.1. Ushbu siyosat bakalavriat ta’lim yo‘nalishlaridagi barcha fanlar bo‘yicha talabalar bilimini baholashni tartibga soladi. Baholash siyosati bakalavriat ta’lim yo‘nalishining Malaka talablari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.12.2020 yildagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 824-sonli qarori va Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining “Oliy ta’lim tashkilotlarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to‘g‘risida”gi nizomni tasdiqlash haqida buyrug‘i talablariga muvofiq ishlab chiqilgan.

1.2. Talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

talabalarda davlat ta’lim standartlari va malaka talablariga muvofiq tegishli bilim, ko‘nikma va malakalar shakllanganligi darajasini nazorat qilish va tahlil qilib borish;

talabalar bilimi, ko‘nikma va malakalarini baholashning asosiy tamoyillari: davlat ta’lim standartlari va malaka talablariga asoslanganlik, aniqlik, haqqoniylik, ishonchlilik, mustaqil ta’limni rag‘batlantirilishi, bilimlarni baholashda shaffoflikni ta’minlash;

o‘quv materialining talabalar tomonidan tizimli ravishda va belgilangan muddatlarda o‘zlashtirilishini tashkil etish va tahlil qilish;

talabalarda tahliliy va tanqidiy fikrlash, mustaqil va jamoada ishlash, samarali muloqot qilish hamda boshqa muhim yumshoq ko‘nikmalarini rivojlantirish, axborot resurslari manbalaridan samarali foydalanishni tashkil etish;

talabalar bilimini xolis va adolatli baholash hamda uning natijalarini o‘z vaqtida ma’lum qilish;

talabalarning o‘quv rejasi doirasida kompleks hamda uzluksiz tayyorgarligini ta’minlash;

baholash natijalari asosida ta’lim dasturini doimiy takomillashtirish.

1.3. Har bir fanning dasturi (sillabusi) ushbu siyosatga tayanadi. Fan dasturi (sillabus)da faqat o‘sha fanga xos topshiriqlar, baholash vaznlari va mezonlari keltiriladi.

II. Baholash tamoyillari

Natijaga yo‘naltirilganlik. Har bir baholash topshirig‘i bevosita fanning o‘quv natijalarini o‘lchaydi. O‘quv natijalari Malaka Talablarida belgilangan kasbiy kompetensiyalarga bog‘langan. O‘qitish usullari va baholash shakllari bir-birini qo‘llab-quvvatlaydi.

Formativ va summativ muvozanat. Barcha fanlarda joriy (formativ) baholash semestr davomida uzluksiz olib boriladi va talabaga rivojlantiruvchi fikr-mulohaza beradi. Yakuniy (summativ) baholash esa natijani mustaqil holda qayd etadi.

Shaffoflik. Baholash tartibi, topshiriqlar va mezonlar talabaga semestrning birinchi mashg‘ulotida, topshiriqlar berilishidan avval yetkaziladi.

Xilma-xillik. Baholash usullari fanning xususiyatiga mos bo‘lishi shart. Yozma test, amaliy ko‘rsatma, loyiha, portfolio, og‘zaki himoya - har biri turli o‘quv natijalarini o‘lchash uchun qo‘llaniladi. Bitta usulga to‘liq tayanish qabul qilinmaydi.

Izchillik. Barcha baholovchilar sillabusda keltirilgan mezonlarga asoslanadi. Baholash natijalarining adolatliligi kafedra tomonidan har semestr oxirida ko‘rib chiqiladi.

Akademik halollik. Plagiat, soxtalash yoki ruxsatsiz yordam aniqlanganda topshiriq 0 ball bilan baholanadi va ish fakultet dekaniga yetkaziladi. Talabalar birinchi mashg‘ulotda akademik halollik talablari bilan tanishtiriladi.

Manfaatlar to‘qnashuvi. Yakuniy nazoratni o‘sha fandan dars bergan o‘qituvchi o‘tkaza olmaydi. Baholovchi va talaba o‘rtasida shaxsiy yaqinlik yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri manfaatdorlik aniqlansa, baholovchi almashtiriladi.

III. Nazorat turlari va ballar taqsimoti

3.1. Dasturning barcha fanlarida quyidagi nazorat turlari qo‘llaniladi:

Mustaqil ta’lim: talabaning auditoriyadan tashqari mustaqil o‘quv faoliyatini baholaydi. Shakli va muddati sillabusda belgilanadi.

Oraliq nazorat: semestr davomida fandan ikki marta o‘tkaziladi. Shakli va vaqti kafedra tomonidan belgilanib, sillabusda ko‘rsatiladi.

Yakuniy nazorat: semestr oxirida o‘tkaziladi. Uni o‘sha fandan dars bermagan o‘qituvchi o‘tkazadi. Bir kunda bir fandan ko‘p yakuniy nazorat o‘tkazilmaydi va ular orasida kamida ikki kun bo‘shliq bo‘lishi shart.

3.2. Mustaqil ta’lim va oraliq nazorat bo‘yicha ajratilgan maksimal (5 ballik tizimda baho olgan talaba yakuniy nazoratga kiritiladi. 3 balldan kam to‘plagan talaba yakuniy nazoratga kiritilmaydi va akademik qarzdor hisoblanadi.

3.3. Yakuniy nazoratda ajratilgan maksimal 5 ballik tizimdan 3 balldan kam to‘plagan talaba akademik qarzdor hisoblanadi.

3.4. Baholash shkalasi va xalqaro ekvivalentlari quyidagi jadvalda berilgan:

O‘zbekiston ta’lim tizimining 5 baho tizimi		
№	**Baho**	**Izox**
1	5	A’lo
2	4	Yaxshi
3	3	Qoniqarli
4	2-0	Qoniqarsiz

IV. Baholash mezonlari

Barcha fanlarda quyidagi umumiy mezonlar qo‘llaniladi. Har bir fanning sillabusida ushbu mezonlar o‘sha fanning mazmuniga moslab aniqlanadi:

5 A’lo (5): Talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi va fan bo‘yicha to‘liq tasavvurga ega.

4 Yaxshi (4): Talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi va fan bo‘yicha tasavvurga ega.

3 Qoniqarli (3): Talaba olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi va fan bo‘yicha umumiy tasavvurga ega.

2 - Qoniqarsiz (2-0): Talaba fan dasturini o‘zlashtirmagan, fanning mohiyatini tushunmaydi va fan bo‘yicha tasavvurga ega emas.

Nazorat topshiriqlari talabaning o‘zlashtirishini xolis va aniq baholash imkoniyatini berishi shart.

V. Talabaga fikr-mulohaza berish

5.1. Formativ baholashning asosiy maqsadi rivojlantiruvchi fikr-mulohaza berish orqali talabaning o‘zlashtirishini yaxshilashdan iborat.

5.2. Fikr-mulohaza (feedback) quyidagi tartibda beriladi:

Mustaqil ta’limda yozma topshiriq qaytarilganida yozma fikr-mulohaza bilan birga beriladi.

Oraliq nazoratda natijalar e’lon qilinganidan keyin 5 ish kuni ichida yozma yoki og‘zaki shaklda beriladi. Maqsad: talabaga yakuniy nazoratga tayyorgarlik uchun yo‘nalish ko‘rsatish.

Yakuniy nazoratda natijalar e’lon qilinganidan keyin 10 ish kuni ichida yozma shaklda beriladi. Talaba so‘rasa, o‘z ishi bilan tanishish huquqiga ega.

5.3. Fikr-mulohaza aniq bo‘lishi shart: nimani yaxshi bajardi, nimani yaxshilash kerak, qanday qadamlar qo‘yishi lozim. Faqat ball yozish fikr-mulohaza hisoblanmaydi.

5.4. Yakuniy nazorat natijalari e’lon qilinishidan avval talaba o‘zining joriy, mustaqil ta’lim va oraliq nazorat natijalari bilan tanishishi ta’minlanadi.

VI. Natijalarni qayd etish

Barcha baholar (elektron) jurnaliga o‘sha kuni yoziladi. Yozma ishlar natijalari 3 ish kuni ichida kiritiladi. Yakuniy nazorat bahosi talabaning baholash daftariga ham yoziladi. 2 baho va 0 belgisi daftarga yozilmaydi. Qaydnoma kafedra mudiri va fakultet dekani tomonidan imzolanadi va dekanatda saqlanadi.

Kredit talabaga fanning dasturida (sillabusida) belgilangan baholash tartibi hamda ijobiy baho (60 ball va undan yuqori) asosida beriladi. Talaba belgilangan ta’lim olish natijalariga erisha olmagan taqdirda kredit berilmaydi.

VII. Akademik qarzdorlik va qayta topshirish

7.1. Ta’lim oluvchini kursdan kursga o‘tkazish uning GPA qiymatini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Talabalarni kursdan kursga o‘tkazishda GPA ko‘rsatkichini 2,4 va undan yuqori bo‘lishi talab etiladi. GPA o‘tish ballini to‘play olmagan talaba qayta o‘qish uchun tegishli kursda qoldiriladi. Semestr va o‘quv yili yakuni natijalari bo‘yicha akademik qarzdorligi bor ta’lim oluvchilar o‘qishdan chetlashtirilmaydi. Kursdan kursga qolgan talabalar faqat qarzdor bo‘lgan fanlarni o‘zlashtirib ularga mos ravishda shartnoma mablag‘larini to‘laydi.

7.2. Akademik qarzdor talabalarning tashabbusi bilan mavjud akademik qarzlarni topshirish maqsadida yozgi semestr oliy ta’lim muassasasi tomonidan odatda ta’til vaqtida pulli asosda tashkil etiladi. Yozgi semestrning davomiyligi akademik taqvim asosida bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari, magistratura mutaxassisliklari va kurslar bo‘yicha belgilanadi.

7.3. Yozgi semestr quyidagi reglament asosida tashkil qilinadi:

talaba yozgi semestr boshlanguniga qadar oliy ta’lim muassasasi o‘quv-metodik bo‘limi (boshqarmasi)ga o‘zining yozgi semestrda o‘qishi istagini bildiradi;

oliy ta’lim muassasasi ushbu talabalarga yozgi semestr uchun dars jadvalini tuzadi va talaba to‘lov pulini to‘laganidan so‘ng darslarga kiritiladi;

yozgi semestr amaldagi baholash tizimi asosida talabalar bilimini shaffof baholash tamoyiliga koʻra tashkil qilinadi.

Yozgi semestrga jalb qilingan professor-oʻqituvchilarga soatbay asosida ish haqi toʻlanadi.

VIII. Apellyatsiya

8.1. Talaba natija e'lon qilingan kundan 24 soat ichida yozma ariza beradi.

8.2. Fakultet dekani tomonidan tuzilgan, baholashda ishtirok etmagan oʻqituvchilardan iborat komissiya 2 ish kuni ichida koʻrib chiqadi.

8.3. Talabaning komissiyada ishtirok etish huquqi bor.

8.4. Komissiya qarori yakuniy hisoblanadi va yozma shaklda talabaga yetkaziladi.

8.5. Apellyatsiya natijalari kafedra tomonidan har semestr oxirida umumlashtirilib tahlil qilinadi. Tizimli xatolar aniqlansa, baholash mezonlari yoki topshiriqlar qayta koʻrib chiqiladi.

IX. Baholash tizimini takomillashtirish

9.1. Har semestr oxirida talabalar oʻrtasida baholash jarayoni boʻyicha anonim soʻrovnoma oʻtkaziladi. Soʻrovnomada quyidagi masalalar qamrab olinadi: baholash mezonlarining tushunarligi; fikr-mulohaza oʻz vaqtida va foydali boʻlganligi; baholash adolatli amalga oshirilganligi.

9.2. Soʻrovnoma natijalari kafedra yigʻilishida muhokama qilinadi. Aniqlangan muammolar keyingi semestrgacha bartaraf etiladi.

X. Baholash sifatini monitoring qilish

10.1.Har semestr oxirida fanning mas'ul oʻqituvchisi qisqa tahliliy ma'lumotnoma tayyorlaydi: oʻtish foizi, oʻrtacha baho, tipik xatolar, talabalar fikr-mulohazasi xulosasi, oʻzgartirishga tavsiyalar.

10.2.Maʻlumotnoma kafedra yigʻilishida muhokama qilinadi. Aniqlangan muammolar asosida keyingi semestrgacha topshiriqlar yoki mezonlarga zarur oʻzgartirishlar kiritiladi va kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi.

10.3.Baholash natijalari dasturning yillik ichki monitoring hisobotiga kiritiladi.

10.4.Har ikki yilda bir marta kafedra ish beruvchilar vakillari bilan baholash usullari va natijalarini muhokama qiladi. Ularning takliflari baholash mezonlarini yangilashda hisobga olinadi.